

**TURIZM — MAMLAKAT IQTISODIYOTINING STRATEGIK
TARMOG‘I**

Raxmatova Jo'raxonposhsho Qaxramon qizi

*Toshkent davlat agrar universiteti Agrologistika va biznes
fakulteti. Dekanat dispetcheri*

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada turizm sohasiga strategic sector maqomi berilganligining mazmun va mohiyati haqida so‘z yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Turizm, iqtisodiyot, qaror, farmon, rivojlanish, infratuzilma*

TOURISM IS A STRATEGIC SECTOR OF THE COUNTRY'S ECONOMY

ABSTRACT: *This article discusses the content and significance of granting strategic sector status to tourism.*

Keywords: *Tourism, economy, decision, decree, development, infrastructure*

Bugungi kunda turizm dunyo iqtisodiyotida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan tarmoqlardan biriga aylandi. Avvallari turizmga aholining sayohat qilishi va dam olishini ta‘minlovchi oddiy infratuzilma sifatida qaralgan bo‘lsa, ayni paytda u mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmog‘i sifatida shakllanib, rivojlanishiga katta e‘tibor berilmoqda. Turizm inson hayoti va faoliyatining ko‘p sohalarini qamrab oladi.

Turizm ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning o‘ziga xos katalizatori sifatida transport va aloqa, savdo, qurilish, qishloq xo‘jaligi, xalq iste‘moli mollarini ishlab chiqarish va iqtisodiyotning boshqa shu kabi muhim sektorlarining rivojlanishiga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Eksportga yo‘naltirilgan iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri – turizm industriyasidir. Turizm – bu ishbilarmonlik sohasining muhim xususiyatlaridan biri bo‘lib xorijiy turistlar doimiy oqimini jalb qiladi.

Keyingi yillarda O‘zbekistonda turizm industriyasini rivojlantirish, shu jumladan, imkon qadar qulaylik yaratish, tarmoqning raqobatbardoshligini yanada oshirish, ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini yaxshilash va jahon bozorida milliy turistik mahsulotni faol tanitib borish bo‘yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Tizimli ishlar turistlar oqimini oshirish, infratuzilmani modernizatsiyalash, viza rejimini erkinlashtirish borasida sezilarli natijalarga erishishga muvaffaq bo‘lindi.

Masalan, eng liberal viza rejimlari reytingida 2019 yilda O‘zbekiston MDH mamlakatlari orasida ikkinchi o‘rinni egalladi.

Mamlakatimiz turistik salohiyatini oshirishga befarq bo‘lmagan aholining oilaviy mehmon uylarini, turistlar uchun kamida besh xil xizmat ko‘rsatish turlarini tashkil etganda “Turizm mahallasi”, “Turizm qishlog‘i” yoki “Turizm ovuli” maqomini berishga oid yangiliklar kiritilmoqda. Mamlakatda turizm sohasini rivojlantirish va ommalashtirishga munosib hissa qo‘shgan jamoat tuzilmalari vakillariga va xorijdagi vatandoshlarga “Turizm sohasini rivojlantirishga qo‘shgan hissasi uchun” ko‘krak

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

nishonini ta'ris etish taklifining qo'llab-quvvatlanishi nafaqat yurtdoshlarimizni, balki xorijda yashayotgan vatandoshlarimizning ham O'zbekistonning ulkan turistik imkoniyatlarini ochib berishda muhim omil bo'lishi shubhasiz.

Mamlakat ulkan turistik salohiyatga ega bo'lishiga qaramay, turizm infratuzilmasi, turizm xizmatlari sifati va uning darajasi, shuningdek tarmoqni boshqarish tizimi globallashuv va keskin raqobat sharoitida zamonaviy talablarga mos kelmaydi. Turizmning mamlakat iqtisodiyotiga qo'shayotgan hissasi, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish va aholini ish bilan ta'minlash jahondagi o'rtacha ko'rsatkichlardan orqada qolmoqda, deyiladi farmonga berilgan rasmiy sharhda.

Farmonda turizm sohasida davlat siyosatining sifat jihatdan yangi bosqichga o'tishini belgilab beradigan ushbu tarmoqni tubdan isloh qilish bo'yicha misli ko'rilmagan chora-tadbirlar nazarda tutiladi, quyidagi asosiy maqsadli vazifalar va ustuvor yo'nalishlar belgilanadi:

- turizm industriyasi sub'ektlari faoliyati uchun qulay shart-sharoitlarni shakllantirish, turizmni rivojlantirishdagi barcha to'siq va g'ovlarga barham berish, viza va ro'yxatdan o'tkazish tartib-taomillarini, pasport va bojxona nazoratini soddalashtirish;
- turizm xizmatlarini tashkil etishda turistlar va ekskursantlarning hayoti va sog'lig'i xavfsizligini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- turizmning yangi salohiyatli turlari — ziyorat qilish, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik, sport, davolash-sog'lomlashtirish, qishloq, sanoat, ishbilarmonlik, bolalar, yoshlar va oilaviy turizmni jadal rivojlantirish;
- turizm sohasida xalqaro va milliy tashkilotlar, yirik xorijiy brendlar va kompaniyalar bilan hamkorlikni kengaytirish, turizm xizmati ko'rsatishning ilg'or jahon sifat standartlarini joriy etish;
- respublika mintaqalarida turizm infratuzilmasining zamonaviy ob'ektlari, eng avvalo mehmonxonalar, transport-logistika tuzilmalari, muhandislikkommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish, ushbu maqsadlar uchun xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish;
- raqobatbardosh turizm mahsulotlarini ishlab chiqish, mintaqalarda yangi turizm yo'nalishlarini yaratish, ularni jahon turizm bozorlariga olib chiqish;
- turizm tarmog'i uchun malakali kadrlarni sifatli tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish. Har qanday sharoitda, xususan, bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida turizm infratuzilmasini rivojlantirishda davlat asosiy rol o'ynaydi. Deyarli barcha davlatlar milliy iqtisodiyotida turizm tarmog'ining ahamiyatini oshirishga harakat qilishadi [1-8].

Chunki, turizm milliy iqtisodiyotini rivojlantirishda quyidagi ustuvorliklarga ega: mahalliy ishchi kuchlarini malakali mehnat va yashash sharoitlari bilan ta'minlash manbai; bozorni shakllantirish hamda kapital investitsiyalarning oqib kelish mexanizmi; qurilish (mehmonxonalar, kempinglar, motellar), kommunikatsiya (uyali, tele va optik aloqa), transport (avtomobillar, avtobuslar, xalqaro andozolardagi temir yo'l vagonlari, samolyotlar), shuningdek xizmat ko'rsatish infratuzilmasi (avto yoqilg'I quyish stantsiyalari) kabi sohalarga yangi texnologiyalar va nou-xau joriy etish vositasi; illy

xalq hunarmandchiligini rivojlantirish vositalari; mamlakatda va hududda siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy holatni barqarorlashtirish omillari; tarixiy yodgorliklar va madaniy merosni asrash usullari; davlatning valyuta daromadlarini samarali oshirish vositalari.

Umuman olganda, davlat turizm infratuzilmasini rivojlantirish uchun uning huquqiy va iqtisodiy asoslarini yaratadi, bu soha uchun kadrlar tayyorlash masalasini yo'lga qo'yadi, viza tizimini soddalashtiradi, turistik mahsulotlar va an'anaviy tovarlarni ishlab chiqarishni rag'batlantiradi.

O'zbekistonda turizm infratuzilmasining rivojlanishi haqida gapirar ekanmiz, mamlakatning asosiy turizm mintaqalariga bo'linishi xususida to'xtalib o'tish muhim ahamiyatga egadir. Bugungi kunda respublikada to'rtta asosiy turistik mintaqa mavjud bo'lib, ular Farg'ona, Samarqand - Buxoro, Toshkent va Xorazm turizm mintaqalaridir.

Farg'ona turizm mintaqasi Farg'ona vodiysini o'z ichiga qamrab oladi. Uning turistik resurslari arxeologik qazilmalari va 10 me'morchilik obidalari, qulay tabiiy sharoitlar, an'anaviy xalq hunarmandchiligi va san'ati mahsulotlari, sanoat va agrar komplekslardan iborat. Bu yerda avtomobil va temir yo'llarning keng tarmog'ining mavjudligi ham Farg'ona mintaqasidan turizm maqsadlarida foydalanishga, uning butun hududida turizm bazalari va dam olish maskanlarini joylashtirishga imkoniyat yaratadi [9-18]. Toshkent turizm mintaqasi kelgusida turizmning barcha turlarini rivojlantirish uchun universal imkoniyatlarga egadir. Mazkur turizm mintaqasidagi madaniyat yodgorliklari, poytaxt viloyatining bugungi hayoti, qurilishlar, yangi shahar va qishloqlar, zamonaviy madaniyat, mintaqaning tabiati, boy landshafti, rang-barang o'simlik va hayvonot dunyosi uning diqqatga sazovor bo'lishiga sabab bo'ladigan muhim omildir. Avtomobil va temir yo'llari tarmog'i Toshkent turizmi mintaqasidagi turizm markazlarini bir-biri bilan bog'laydi hamda shahar atrofidagi temir yo'l va avtomobil turizmini rivojlantirishga imkon beradi. Samarqand-Buxoro turizm mintaqasi Samarqand, Buxoro va Navoiy viloyatlarini o'z ichiga qamrab oladi. Samarqand va Buxorodagi butun dunyoga mashhur me'morchilik obidalari ushbu mintaqadagi turizmni rivojlantirilishiga asos hisoblanadi [19-35]. Bundan tashqari, Zarafshon daryosi orqali o'tuvchi temir yo'l va keng tarmoqdagi shosse yo'llari, Zarafshon tog'tizmasi orqali o'tgan unchalik baland bo'lmagan davonlar va yaxshi trassalar mintaqada turizmni rivojlantirish uchun nihoyatda qulay omil hisoblanadi. Xorazm turizm mintaqasining salohiyati asosan Xivaning Ichan qa'la qo'riqxonasida joylashgan va jahonda misli yo'q nihoyatda boy tarixiy - me'morchilik yodgorliklariga tayanadi. Faoliyat ko'rsatayotgan turizm mintaqalari bilan bir qatorda yana istiqbolli mintaqalar mavjud bo'lib, ular Jizzax, Qarshi-Termiz va O'rta-Qoraqalpoq mintaqalaridir.

Kelajakda bu mintaqalardagi mavjud imkoniyatlarning rivojlantirilishi mamlakatimizda turizm xizmatlari bozorini yanada kengayishiga olib kelishi mumkin.

Ma'lumki, mamlakatga tashrif buyuradigan turistlar oddiy taomdan boshlab qimmatbaho suvenirlargacha bo'lgan mahsulot va xizmatlarning ma'lum miqdoriga talab bildirishadi. Bu tabiiy ravishda, mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan kichik va xususiy biznes korxonalariga o'z imkoniyatlarini yanada kengaytirish uchun yo'l ochadi. Fermerlar turistlar istiqomat qiladigan

mehmonxonalarda toza mahsulotlarni yetishtirib turishadi, to'qimachilik va tikuvchilik sanoatida faoliyat ko'rsatadigan kichik va xususiy korxonalar turistlar uchun zarur bo'lgan yotoqxonalar jihozlari, xalatlari va boshqa shu kabilarni ishlab chiqarishadi, kosmetika sanoati korxonalari shampun, sovun va dezodorantlarni ishlab chiqarishadi. Hunarmandchilik ustaxonalari va an'anaviy milliy mahsulotlarni ishlab chiqaradigan korxonalar ham turistlar uchun buyurtmalar tayyorlashadi. Umuman olganda, hozirgi kunda respublika turizm sanoatida xususiy turistik korxonalarining faoliyat ko'rsatishi

sezilarli darajada emas. Buning asosiy sabablari quyida o'z ifodasini topgan Mamlakatda turizm sohasini rivojlantirish va ommalashtirishga munosib hissa qo'shgan jamoat tuzilmalari vakillariga va xorijdagi vatandoshlarga "Turizm sohasini rivojlantirishga qo'shgan hissasi uchun" ko'krak nishonini ta'sis etish taklifining qo'llab-quvvatlanishi nafaqat yurtdoshlarimizni, balki xorijda yashayotgan vatandoshlarimizning ham O'zbekistonning ulkan turistik imkoniyatlarini ochib berishda muhim omil bo'lishi shubhasiz.

Mamlakatda turizm sohasini rivojlantirish va ommalashtirishga munosib hissa qo'shgan jamoat tuzilmalari vakillariga va xorijdagi vatandoshlarga "Turizm sohasini rivojlantirishga qo'shgan hissasi uchun" ko'krak nishonini ta'sis etish taklifining qo'llab-quvvatlanishi nafaqat yurtdoshlarimizni, balki xorijda yashayotgan vatandoshlarimizning ham O'zbekistonning ulkan turistik imkoniyatlarini ochib berishda muhim omil bo'ladi. Qisqacha qilib aytganda, turizm – iqtisodiyotning strategik sohasi sifatida qarar ekanmiz, hududlar iqtisodiyotining, qolaversa, ular bilan birga mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida mavjud imkoniyatlardan foydalangan holda turizmga oid kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirsak, yaratilayotgan dasturlar va konsepsiya doirasida ishlar ketma-ketligini sifat va muddat doirasida bajarsak, albatta ko'zlangan maqsadga erishamiz.

REFERENCES:

- [1] G'Ulomxasanov E., Ruziyev B., Akramov S. TURIZMDA DESTINATSIYA //Scientific progress. – 2022. – T. 3. – №. 1. – C. 143-150.
- [2] Djuraevna R. M. et al. Development Prospects for Digital Economy Development in Uzbekistan //Academic Journal of Digital Economics and Stability. – 2021. – C. 58-64
- [3] Yakubova Shamshinur Shukhratovna. "Innovative Approaches for Modeling the Impact of Monetary Policy on Economic Development." Academic Journal of Digital Economics and Stability (2021): 311-318.
- [4] Gulomkasanov E., Shukurova M., Elmurodov B. THE ROLE OF GUIDES IN THE DEVELOPMENT OF INTERNATIONAL TOURISM IN UZBEKISTAN //Збірник наукових праць SCIENTIA. – 2021.

